


Joriy yilning yanvar–iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 40 856,1 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 133,5 % ni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘shish sur‘ati

(2024- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Shayxontohur tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,9 % ga o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Yunusobod tumani 15,7 % ni, Mirobod tumani jami investitsiyalar hajmidan 10,6 % ni tashkil etmoqda.

Tumanlarda ushbu ko‘rsatkich Yashnobod 6,2 %, Mirzo Ulug‘bek 9,7 %, Yakkasaroy 8,5 % ni tashkil etdi.

Bektemir va Yangihayot tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi mos ravishda 1,9 % va 3,2 % ni tashkil etdi.



### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kapital qo'yilmalar (2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)

	2024- yil yanvar-iyun (ming.so'm)	2023- yil yanvar-iyung nisbatan % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>13 360,4</b>	<b>130,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	12 513,8	96,9
Mirzo Ulug'bek	11 959,6	148,2
Mirobod	28 274,3	136,2
Olmazor	4 544,7	85,0
Sergeli	13 113,3	131,0
Uchtepa	6 354,3	47,8
Chilonzor	11 439,1	140,9
Shayxontohur	24 377,1	301,2
Yunusobod	16 922,4	123,6
Yakkasaroy	25 723,8	131,5
Yangihayot	7 397,7	158,3
Yashnobod	8 401,6	83,8

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kapital qo'yilmalar yuqorida ulushga ega tumanlar Mirobod 28 274,3 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,2 foizga), Yakkasaroy 25 723,8 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,5 foizga), Shayxontohur 24 377,1 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 301,2 foizga), o'sgan bo'lib, past ko'rsatgichga Olmazor 4 544,7 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,0 foizga), Yangihayot 7 397,7 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 158,3 foizga) va Uchtepa 6 354,3 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 47,8 foizga) hissasiga to'g'ri keladi.

## Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi ( 2024- yil yanvar-iyun)

mln. so'm

	Jami investitsiyalar	Markazlashgan	Markazlashmagan
<b>Toshkent shahri</b>	<b>40 856 076,3</b>	<b>7 468 417,8</b>	<b>33 387 658,5</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	772 103,9	334 574,0	437 529,9
Mirzo Ulug'bek	3 976 554,4	234 491,5	3 742 062,9
Mirobod	4 320 319,4	1 256 771,5	3 063 548,0
Olmazor	1 846 493,0	81 082,3	1 765 410,7
Sergeli	2 222 701,7	44 936,8	2 177 764,9
Uchtepa	1 906 277,8	345 900,9	1 560 376,9
Chilonzor	3 151 484,0	256 790,0	2 894 694,0
Shayxontohur	8 929 325,6	2 414 015,3	6 515 310,3
Yunusobod	6 403 431,8	1 276 915,4	5 126 516,4
Yakkasaroy	3 472 706,6	351 811,8	3 120 894,8
Yangihayot	1 312 359,5	9 165,8	1 303 193,7
Yashnobod	2 542 318,6	861 962,5	1 680 356,1

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Shayxontohur tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 32,3 % ga o'zlashtirildi.

Shuningdek, ushbu o'zlashtirish bo'yicha Mirobod tumani 16,8 % ni, Yunusobod tumani 17,1 % ni tashkil etmoqda.

Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Shayxontohur tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashmagan asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,5 % ga o'zlashtirildi.




Shuningdek, ushbu o'zlashtirish bo'yicha Yunusobod tumani 15,4 % ni, Mirzo Ulug'bek tumani 11,2 % ni tashkil etmoqda.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (2024- yil yanvar-iyun)


	mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi,% da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>40 856,1</b>	<b>133,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>7 468,4</b>	<b>144,5</b>	<b>18,3</b>
Budjet mablag'lari	1 794,0	106,3	4,4
Suv ta'minoti jamg'armasi	11,7	160,5	-
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	523,5	1 821,8	1,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	5 139,2	149,1	12,6
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>33 387,7</b>	<b>131,3</b>	<b>81,7</b>
korxonalar mablag'i	16 117,9	120,3	39,5
aholi mablag'i	855,8	98	2,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	14 621,9	176,9	35,7
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 792,1	62,2	4,4

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarda kichik biznes ulushi (2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyada yuqori ulushga ega tumanlar Uchtepa 67,0 foiz Yangihayot 54,0 foiz, Mirzo Ulug'bek 53,0 foiz o'sgan bo'lib, past ko'rsatkichga Shayxontohur 16,1 foiz, Mirobod 25,0 foiz va Chilonzor 27,6 foiz hissasiga to'g'ri keladi.


## Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, (umumiy hajmga nisbatan, %da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 468,4 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 144,5 % (jami investitsiyalar hajmining 18,3 %)ga kam o'zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 33387,7 mlrd.so'm yoki o'tgan yilning mazkur davriga nisbatan 131,3% (jami investitsiyalardagi ulushi 81,7 %) ko'p o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari




## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan korxonalar mablag'lari (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 39,5 %), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (35,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda (2024- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha turar-joy qurilishi sohasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5 898,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 14,4 % o'zlashtirilgan.

Birinchisi o'rinda sanoat tarmog'i bo'lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 7 446,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,2 % o'zlashtirilgan.

Sanoat tarmog'i tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 1 536,6 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,8 %).

- ishlab chiqarish sanoati 4 487,5 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 11,0 %);

- elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 1 422,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,5 %);



2024 – yilning yanvar - iyun oylarida Toshkent shahrida davlat kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari quydagilar



O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi



“TOSHKENT METROPOLITENI” unitar korxonasi Toshkent metropoliteni uchun 14 ta to‘rt vagonli metro poyezdlarini xarid qilish



“HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI” aksiyadorlik jamiyati Raqamli transformatsiya va taqsimlash tarmog‘ining barqarorligini oshirish

2024 –yil yanvar – iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi bo‘lgan chet el kreditlari hisobidan 5 139,1 mlrd.so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023 – yilning mos davriga nisbatan 149,1 % ni tashkil etdi.


2024 – yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasai Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilgan investitsiya lohihalari

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” aksiyadorlik jamiyati Yuk vagonlarini qurish

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 523,5 mlrd.so‘mni va jami investitsiyalardagi ulushi 1,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg‘arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sishi 1,8 martani tashkil etdi.



## Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo'yicha qurilish–montaj ishlarining ulushi 35,5 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 50,9 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 13,6 % ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha texnologik tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)

	Jami	Davlat	Nodavlat
<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>40 856,1</b>	<b>7 146,1</b>	<b>33 710,0</b>
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>	<i>100,0</i>	<i>17,5</i>	<i>82,5</i>
Qurilish – montaj ishlari	14 516,7	2 653,9	11 862,8
Mashina, uskuna, inventar	20 807,6	3 566,9	17 240,7
Boshqa xarajatlar	5 531,8	925,3	4 606,5



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda (2024-yil yanvar-iyun)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Mashinalar, uskunalar, inventar ishlari bo'yicha Yashnobod tumanida 65,0 %, Mirzo Ulug'bek 58,2 %, Bektemir tumanida 50,1 %, Yangihayot tumanida 54,3 %, Uchtepa tumanida 47,1 %, ni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanida 59,4 %, Yunusobod 58,2 %, Sergeli tumanida 57,0 %, Chilonzor tumanida 52,0 %, Olmazor tumanida 56,6 %, ni tashkil qildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, foizda (2024- yil yanvar-iyun)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo'yicha Yakkasaroy tumanida 68,4 %, Mirzo Ulug'bek 67,6 %, Yashnobod tumanida 62,6 %, Yangihayot tumanida 52,0 %, Uchtepa tumanida 50,6 %, Bektemir tumanida 48,2 %, ni tashkil etdi.

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo'yicha Yunusobod tumanida 42,7 % ni, Sirg'ali tumanida 38,7 %, Mirobod tumanida 33,4 %, Yangihayot tumanida 24,5 %, Chilonzor tumanida 21,3 % ni, hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yo'nalishida Shayxontoxur tumanida 54,5 %, Olmazor tumanida 46,8 %, Mirobod tumanida 39,2 % ni va Chilonzor tumanida 38,8 % ni tashkil qildi.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar (2024- yil yanvar-iyun)

	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	
		2023- y.	2024- y.
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami</b>	<b>40 856,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
Qishloq xo'jaligi	211,7	1,1	0,5
Tog`-kon sanoati	1 536,6	0,7	3,8
Ishlab chiqarish sanoati	4 487,5	13,5	11,0
Elektr gaz bug' va konditsanlangan havoni konditsiyalash	1 422,4	1,7	3,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1 852,7	3,6	4,5
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	427,0	0,7	1,0
Qurilish	3 089,5	6,4	7,6
Ulgurji va chakana savdo	1 968,4	6,1	4,8
Tashish va saqlash	3 506,6	13,7	8,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	755,8	1,3	1,8
Aloqa va axborotlashtirish	3 481,4	15,0	8,5
Moliya va sug`urta faoliyati	2 367,7	5,6	5,8
Ko'chmas mulk	1 041,4	2,5	2,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	600,8	2,2	1,5
Ma'muriy va qo'shimcha xizmatlar	1 086,2	1,6	2,7
Davlat boshqaruv, mudofasi majburiy ijtimoiy ta'minot	1 473,6	2,7	3,6
Ta'lim	1 089,4	4,6	2,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy soha	4 295,3	4,2	10,5
Boshqa shaxsiy xizmatlar ko'rsatish	263,4	1,2	0,7
Turar-joy qurilishi	5 898,7	11,6	14,4



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: Ishlab chiqarish sanoati 4 487,5 mlrd.so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 11,0 %), oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 481,7 mlrd.so'm (1,2 %), metallurgiya sanoati ishlab chiqarish faoliyati turida 139,2 mlrd.so'm (0,3 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 98,9 mlrd. so'm (0,3 %), boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 520,4 mlrd. so'm (1,3 %), tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish faoliyati turida 260,2 mlrd. so'm (0,6 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish sanoatida 272,8 mlrd. so'm (0,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatida 1235,7 mlrd. so'm (3,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 1 422,4 mlrd. so'm (3,5 %), qurilish faoliyati turida 3089,5 mlrd. so'm (7,6 %), yashash va ovqatlanish faoliyat turida 755,8 mlrd. so'm (1,8 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash faoliyat turida 1968,4 mlrd.so'm (4,8 %), tashish va saqlash faoliyati turida 3 506,6 mlrd.so'm (8,6 %), axborot va aloqa faoliyat turida 3 481,4 mlrd.so'm (8,5 %), moliya va sug'urta faoliyati turida 2367,7 mlrd.so'm (5,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 4295,3 mlrd. so'm (10,5 %), ta'lim sohasida 1 089,4 mlrd.so'm (2,7 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat turida 600,8 mlrd. so'm (1,5 %), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 5 898,7 mlrd. so'm (14,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, foizda (2024- yil yanvar-iyun)





## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2024-yil yanvar-iyun oylarida 19761,0 mlrd.so‘m yoki 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 168,7 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 48,4 % tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Shayxontohur tumanida 31,5 %, Yunusobod tumanida 16,2 %, Yakkasaroy tumanida 11,6 %, Chilonzor tumanida 10,8 %ga to‘g‘ri keldi.


## Hududlarda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar

(2024- yil yanvar-iyun, mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
<b>Toshkent sh.</b>	<b>19 761,0</b>	<b>11 582,5</b>	<b>8 178,4</b>	<b>14 621,8</b>	<b>11 582,5</b>	<b>3 039,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Bektemir	25,5	25,5	-	25,5	25,5	-
Mirzo Ulug‘bek	1 150,8	1 148,5	2,3	1 148,5	1 148,5	-
Mirobod	1 004,0	324,7	679,2	450,4	324,7	125,7
Olmazor	300,4	278,4	22,0	294,1	278,4	15,7
Sergeli	806,6	519,8	286,8	806,6	519,8	286,8
Uchtepa	980,5	662,2	318,3	662,2	662,2	
Chilonzor	2 127,4	1 349,4	778,0	2 098,9	1 349,4	749,5
Shayxontohur	6 228,5	3 371,7	2 856,7	3 968,4	3 371,7	596,7
Yunusobod	3 194,5	1 304,4	1 890,1	2 157,3	1 304,4	852,9
Yakkasaroy	2 288,8	2 073,2	215,6	2 077,3	2 073,2	4,1
Yangihayot	634,1	252,7	381,5	634,1	252,7	381,4
Yashnobod	1 019,9	272,0	747,9	298,5	272,0	26,5




## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)



To'g'ridan-to'g'ri, boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilgan hajmi 2024-yilning yanvar-iyunida 14 621,9 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 176,9 %ni tashkil qildi.

## Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, foizda





Quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar eng ko'p o'zlashtirildi: turar-joy qurilishi 14,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan (2,8 % ga) ko'paygan.

Shu bilan birga, quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga xorijiy investitsiya va kreditlar kam o'zlashtirildi: tog'-kon sanoati faoliyati 3,8 %, ta'lim 2,7 %, qishloq xo'jaligi 0,5 %.

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qurilish ishlari


(2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)

	2024- yil yanvar-iyun (ming.so'm)	2023- yil yanvar-iyung nisbatan % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>6 307,6</b>	<b>107,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	2 186,7	102,0
Mirzo Ulug'bek	9 200,6	93,5
Mirobod	8 883,0	137,6
Olmazor	6 493,1	109,7
Sergeli	17 454,2	99,3
Uchtepa	4 263,9	117,9
Chilonzor	3 492,5	110,1
Shayxontohur	4 208,3	96,9
Yunusobod	14 521,2	95,8
Yakkasaroy	5 360,3	99,3
Yangihayot	5 000,7	94,5
Yashnobod	6 221,3	99,3

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qurilish ishlarida yuqorida ulushga ega tumanlar Mirobod 17 454,2 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,3 foizga), Yakkasaroy 14 521,2 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,8 foizga), Mirzo Ulug'bek 6 493,1 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,7 foizga), o'sgan bo'lib, past ko'rsatgichga Uchtepa 2 186,7 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 foizga), Olmazor 3 492,5 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,1 foizga) va Yangihayot 5 000,7 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizga) hissasiga to'g'ri keladi.



## Qurilish ishlarida kichik biznes ulushi (2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi qurilish ishlarida yuqori ulushga ega tumanlar Yashnobod 86,5 foiz, Chilonzor 84,3 foiz, Sergeli 81,1 foizga o'sgan bo'lib, past ko'rsatkichga Shayxontohur 41,9 foiz, Yunusobod 37,2 foiz va Olmazor 64,6 foiz hissasiga to'g'ri keladi.

### Ijtimoiy soha ob'ektlarining qurilishi

Ijtimoiy soha obektlari bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida maktablar, qatnov smenada poliklinikalar, yotoq o'rinli shifoxona va maktabgacha ta'lim muassalari ishga tushirilmadi.

Umumiy maydoni 345,6 ming kv.m. bo'lgan 939 ta turar joy obekti yangi qurilib, ishga tushirilgan.


Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Bektemir tumanida ishga tushirilgan 85,6 ming kv.m va u shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 24,8 % ni tashkil etdi. Keyingi o'rinda, Yashnobod tumani egallagan bo'lib, 49,8 ming kv.m shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 14,4 % ni tashkil etishgan.



## Qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar–iyun oylarida 19 288,6 mlrd.so‘m yoki 2023-yilning yanvar–iyuniga nisbatan 110,0 % qurilish ishlari bajarildi.

### 2024 - yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda



Qurilish ishlari bo‘yicha yuqori o‘shish sur‘atlari quyidagi tumanlarda kuzatildi: Yunusobod tumanida 140,9 % va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 72,8 % punktga ko‘paydi, Shayxontohur va Olmazor tumanlarida 119,4 % va 112,6 % dan bo‘lib (17,8 % va 2,3 % punktga), Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonida 18 749,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,2 foizni tashkil qildi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari

(2024-yil yanvar-iyun oylarida)

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, (foizda)	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>19 288,6</b>	<b>100,0</b>	<b>11 900,7</b>
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	567,7	2,9	387,8
Mirzo Ulug‘bek	2 159,0	11,2	1 186,8
Mirobod	2 667,0	13,8	1 346,5
Olmazor	1 419,0	7,4	742,8
Sergeli	713,3	3,7	472,0
Uchtepa	656,0	3,4	655,3
Chilonzor	1 714,0	8,9	1 372,2
Shayxontohur	1 561,9	8,1	998,8
Yunusobod	3 361,3	17,4	2 263,7
Yakkasaroy	1 960,4	10,2	938,8
Yangihayot	887,1	4,6	511,2
Yashnobod	1 622,0	8,4	1 024,8



## 2024 – yilning yanvar – iyun oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 6 548,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 167,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 11,1 % ga ko‘payib, 33,4 % ni tashkil etdi.

Kichik qurilish korxonalar va mikrofirmalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 11 513,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 94,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 09,6 % ga kamayib, 59,7,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 227,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 83,2 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,1 % ga kamayib, 6,4 % ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari (mlrd. so‘m)





Qurilish ishlari umumiy hajmining 69,9 foizi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 15,7 foizi fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 14,4 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

### STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu** – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga**-barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu** – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

**Davlat mulkchiligi**- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

**Asosiy kapital** – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo'lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jang'ariladi.

**Buyurtmachilar** – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarini, binolarini, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat



ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim.

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.

**Qurilish** — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo'lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

**Rekonstruksiya** — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyofasini yoki dastlabki ko'rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

**Kapital ta'mirlash** — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to'liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta'mirlash binoning tashqi ko'rinishini to'liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

**Joriy ta'mirlash** - bu xizmat ko'rsatilayotgan ob'ektni shikastlanish va nosozliklardan o'z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.